

BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI: TRANSFORMATSIYA, O'LCHASH VA BAHOLASH

Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich

Samarqand davlat vetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasida o'qituvchisi.

Orcid:0009-0003-4590-5807

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20496476>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonaning biologik aktivlaridan hosil yig'ib olingan paytdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti tushunchasi, qishloq xo'jaligi aktivlarini baholashda qo'llaniladigan joriy bozor qiymati metodologiyalari hamda biologik aktivlarni tan olish, o'lchash va baholash tartiblari yoritiladi. Maqola avvalo qishloq xo'jaligi tarmog'ida baholovchi foydalanishi mumkin bo'lgan turli yondashuvlarni aniqlaydi va bu metodlarni izohlaydi. Korxonaga haqqoniy qiymati ishonchli aniqlanishi mumkin bo'lgan biologik aktivlar uchun haqqoniy qiymat modelidan, boshqa biologik aktivlar uchun esa tannarx modelidan foydalanadi. Tadqiqotga ko'ra, hosil beruvchi o'simliklar uchun tarixiy tannarx yondashuvi, tirik hayvonlar uchun esa haqqoniy qiymat asosida o'lchash maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi mahsuloti, biologik aktivlar, IAS 41, o'lchash, haqqoniy qiymat, asalarichilik, asalari oilalari, O'zbekiston xo'jaliklari.

Kirish

Qishloq xo'jaligi insoniyatning eng qadimgi faoliyat turlaridan biri bo'lib, ishlab chiqariladigan iqtisodiy aktivlar orqali jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. U global iqtisodiyotga salmoqli hissa qo'shsa-da, uzoq vaqt davomida qishloq xo'jaligi faoliyatining buxgalteriya hisobi standartlarni ishlab chiquvchi organlar va tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha e'tiborga olinmagan. Bu holat Xalqaro buxgalteriya standarti IAS 41 — "Qishloq xo'jaligi" qabul qilingunga qadar davom etdi.

IAS 41 hajman kichik bo'lsa-da, qamrovi keng va ushbu standart doirasiga kiruvchi subyektlar uchun ta'siri katta bo'lgan standartdir.¹ U biologik aktivlarni yetishtirish yoki parvarish qilish orqali foyda olishga qaratilgan subyektlarga tatbiq etiladi. Biologik aktiv tirik hayvon yoki tirik o'simlik sifatida ta'riflanadi. Bundan tashqari, u hosil beruvchi o'simliklarda yetilayotgan mahsulotni ham qamrab oladi.

Standart qishloq xo'jaligi faoliyatini biologik aktivlarni boshqarish, hosil olish va biologik transformatsiyani nazorat qilish jarayoni sifatida izohlaydi. Biologik transformatsiya biologik aktivda miqdoriy va sifat jihatdan o'zgarishlarga olib keladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston asalarichilik xo'jaliklari misolida bunday transformatsiya asalari oilasining kuchayishi, yangi ona ari paydo bo'lishi, ari paketlari shakllanishi, asal zaxirasining ortishi, mum ajralishi yoki kasallik va iqlim omillari sababli oilaning zaiflashishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Biologik aktivlar dastlabki tan olinishi va har bir hisobot davri yakunida odatda sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda o'lchanadi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti ham hosil yig'ib olingan paytda sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholanadi.

¹ Herbohn K., Herbohn J. International Accounting Standard (IAS) 41: What are the implications for reporting forest assets? Small Scale Forest Econ Manag Policy, 2006.

IAS 41 barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari va biologik aktivlar uchun haqqoniy qiymat aniqlanishi mumkin degan taxminga asoslanadi. Bu taxmin faqat dastlabki tan olish paytida, bozordagi narxlar yoki qiymatlar mavjud bo'lmaganda hamda alternativ haqqoniy qiymat baholari aniq ishonchsiz bo'lganda rad etilishi mumkin.

Maqolada yana hosil beruvchi o'simliklar bilan bog'liq takliflar ham ko'rib chiqiladi. Hosil beruvchi o'simlik — bir davrdan ortiq muddat davomida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish yoki yetkazib berishda foydalaniladigan, qishloq xo'jaligi mahsuloti sifatida sotilishi ehtimoli juda past bo'lgan tirik o'simlikdir.

Asalarichilikda asosiy biologik aktiv o'simlik emas, balki tirik hayvon — asalari oilasi bo'lgani uchun baholashda ko'proq tirik hayvonlar bo'yicha yondashuv ahamiyatlidir.

Biologik aktivlar o'rmon, bog', chorva yoki asalari oilasi kabi ko'rinishdan qishloq xo'jaligi mahsulotiga aylanish jarayonida IAS 41 talablari asosida hisobga olinadi. Biologik aktivlar haqqoniy qiymatining sotish xarajatlari chegirilgan holdagi o'zgarishi tegishli davrning sof foydasi yoki sof zarariga kiritiladi. Standart qishloq xo'jaligi mahsulotlariga faqat hosil yig'ib olish paytigacha qo'llanadi.

Hosil yig'ib olingandan keyin, ya'ni mahsulot qayta ishlash bosqichiga o'tgach, IAS 2 — "Zaxiralar" standarti qo'llanadi.

Masalan, asalarichilikda asal uyadan ajratib olingan paytda IAS 41 bo'yicha baholanishi, keyinchalik qadoqlangan asal, mum mahsulotlari yoki kosmetik vositalar sifatida saqlanganda zaxiralar sifatida hisobga olinishi mumkin.

Biologik aktivlar

Biologik aktiv tirik hayvon yoki tirik o'simlikdan iborat bo'ladi. U tirik hayvonlar yoki o'simliklarning o'sishi, yoshi yoki kasallik tufayli mahsuldorlikning kamayishi hamda boshqariladigan ko'paytirish dasturi orqali yangi biologik aktivlar yaratilishini qamrab oladi.

Bunday transformatsiya o'sish, tirik hujayralarning biologik eskirishi, mahsulot hosil qilish yoki ko'payish jarayonlaridan iborat bo'lib, biologik aktivning sifati yoki miqdorida o'zgarishga olib keladi.²

Qishloq xo'jaligi mahsuloti yoki tirik resurs faqat quyidagi shartlar bajarilganda hisobda tan olinadi: xo'jalik subyekti o'tgan voqealar natijasida aktiv ustidan nazoratga ega bo'lsa; aktivdan kelgusida iqtisodiy foyda olinishi ehtimol bo'lsa; aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo'lsa.

Biologik aktiv dastlabki hisobga olishda ham, hisobot davri oxirida ham odatda sotish xarajatlari chegirilgan qiymatda baholanadi.

O'zbekiston asalarichilik xo'jaliklarida biologik aktiv sifatida eng muhim obyekt asalari oilasidir.

Asalari oilasi tarkibiga ona ari, ishchi arilar va erkak arilar kiradi. Buxgalteriya hisobida bunday aktivning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u kelgusida asal, mum, propolis, gul changi, ari suti, ari zahari hamda yangi ari oilalari yoki ari paketlari ko'rinishida iqtisodiy foyda keltiradi.

² Deloitte Shared Services India LLP. Harvest is the Detachment of Produce from a Biological Asset or the Cessation of a Biological Asset's Life Processes, 2016.

Asalarichilikdagi biologik aktiv	Biologik transformatsiya ko'rinishi	Hisobdagi natija
Asalari oilasi	Oilaning kuchayishi, yangi ishchi arilar paydo bo'lishi, mahsuldorlikning ortishi	Biologik aktiv qiymatining oshishi va kelgusidagi mahsulot hajmiga ta'siri
Ona ari	Tuxum qo'yish qobiliyati, nasl sifati va oilaning barqarorligiga ta'sir	Alohida nazorat qilinadigan asosiy biologik komponent sifatida baholanishi mumkin
Ari paketi yoki yangi oila	Ko'paytirish, ajratma oilalar hosil qilish	Yangi biologik aktiv sifatida tan olinadi
Asal zaxirasi	Biologik jarayon natijasida uyada to'planadi	Hosil yig'ib olingunga qadar biologik aktiv bilan bog'liq mahsulot; olingandan keyin zaxira
Mum va propolis	Ari faoliyati natijasida shakllanadi	Hosil olingandan keyin qishloq xo'jaligi mahsuloti yoki zaxira sifatida hisobga olinadi

Biologik aktivlarning transformatsiyasi jarayonida biologik aktivlardan mahsulotlar olinadi va ayrim hollarda shu aktivlarning o'zidan qo'shimcha biologik aktivlar ham vujudga keladi.

Asalarichilikda bu jarayon ayniqsa yaqqol ko'rinadi: asalari oilasi bir tomondan asal va mum beradi, boshqa tomondan esa yangi ona ari, yangi oila yoki ari paketi shakllanishiga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti

Korxonaning biologik aktivlaridan olinadigan qishloq xo'jaligi mahsuloti hosil yig'ib olingan paytda sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholanishi kerak. Ushbu baholash keyingi bosqichda IAS 2 yoki boshqa tegishli xalqaro standart qo'llanadigan sanada qayd etiladigan boshlang'ich qiymatni bildiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti biologik aktivdan ajratib olingan hosildir. Hosil yig'ib olish biologik aktivdan mahsulotni ajratish yoki biologik aktivning hayotiy jarayonlarini to'xtatish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Asalarichilikda hosil yig'ish asalni ramkalardan ajratib olish, mumni eritish, propolisni yig'ish, gul changini ajratish yoki ari paketlarini shakllantirish ko'rinishida bo'ladi.

Hosil yig'ib olingan mahsulot sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi va hisobda aks ettiriladi. IAS 2 — "Zaxiralar" standartiga ko'ra, bunday baholash hosil olingan sanada zaxiralarning boshlang'ich qiymatini shakllantiradi.

Haqqoniy qiymatni aniqlashda quyidagi tartib qo'llanadi:

faol bozorda aynan shu qishloq xo'jaligi mahsuloti yoki biologik aktiv uchun e'lon qilingan narx mavjud bo'lsa, shu narx asos qilib olinadi;

faol bozor mavjud bo'lmasa, bozorda shakllangan narxlar yoki so'nggi bitimlar qiymati, shu jumladan hududiy bozor benchmarklari qo'llanadi;

bozor narxlari mavjud bo'lmasa, biologik aktivdan kutilayotgan sof pul oqimlarining joriy qiymati aniqlanadi.

O‘zbekiston asalarichilik xo‘jaliklarida faol bozor narxlarini aniqlashda hududiy asal bozorlari, qayta ishlovchi korxonalar bilan shartnomalar, kooperatsiyalar narxlari, eksportga yo‘naltirilgan partiyalar narxi va sifat ko‘rsatkichlari hisobga olinishi mumkin. Bunda asal turi — paxta, tog‘, beda, kungaboqar, cho‘l yoki aralash asal — bozor qiymatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

1-jadval. Eng ko‘p uchraydigan biologik aktivlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qo‘shimcha biologik aktivlar

Biologik aktivlar	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	Biologik aktivlardan qayta ishlangan mahsulot	Qo‘shimcha biologik aktivlar
Sut qoramollari	Sut	Sut mahsulotlari	Buzoqlar
Go‘sh t qoramollari	Go‘sh t	Go‘sh t mahsulotlari, teri	Buzoqlar
Parrandalar	Tuxum, parranda go‘sh t, pat	Tuxum va parranda mahsulotlari, momiq	Jo‘ja, o‘rdakcha, g‘ozcha
Asalari oilalari	Asal, gul changi, mum, propolis, ari suti, ari zahari	Mum mahsulotlari, perga, kosmetik va dorivor mahsulotlar, qadoqlangan asal	Ona arilar, yangi asalari oilalari, ari paketlari
Qo‘ylar	Jun, go‘sh t	Ip-kalava, kiyim, go‘sh t mahsulotlari	Qo‘zilar
Otlar	Ot yoli	Ot yolidan mahsulotlar	Toylar
Kartoshka ekinlari	Kartoshka	Kraxmal, kartoshka mahsulotlari	Ko‘chatlar
Don ekinlari	Don, somon, urug‘	Non, solod, pichan va boshqalar	Nihollar
Mevali daraxtlar	Meva, rezavor, urug‘	Murabbo, sharbat, muzlatilgan mahsulotlar	Ko‘chatlar, nihollar
O‘rmon daraxtlari	Yog‘och xomashyosi, urug‘	Yog‘och mahsulotlari	Daraxt ko‘chatlari
Manzarali o‘simliklar	Kesilgan gullar, manzarali butalar	Floristika mahsulotlari	Ko‘chatlar va nihollar
Chuchuk suv baliqlari	Tutilgan baliq	Baliq mahsulotlari	Chavoq baliqlar

Tan olish va transformatsiya

Biologik aktiv hisobda tan olinishi uchun xo‘jalik subyekti o‘tgan voqealar natijasida aktiv ustidan nazoratga ega bo‘lishi, aktiv bilan bog‘liq kelgusidagi iqtisodiy foyda xo‘jalikka kelib tushishi ehtimol bo‘lishi va aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxi ishonchli o‘lchanishi kerak.

Dastlabki tan olishda biologik aktiv, shu jumladan hosil beruvchi o‘simlikda o‘sayotgan mahsulot, sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda o‘lchanadi. Chunki haqqoniy qiymat ishonchli aniqlanishi mumkin deb taxmin qilinadi.

Haqqoniy qiymatni o‘lchash “aniq ishonchsiz” degan da’vo kuchli dalillar bilan asoslanishi kerak. Bunday dalil sifatida bozor narxlari mavjud emasligi, so‘nggi bitimlar yo‘qligi, aktivning xususiyatlari juda individual ekanligi yoki haqiqiy baholash amaliyoti natijasida ishonchli qiymat

shakllanmasligi keltirilishi mumkin. Agar bu taxmin rad etilsa, biologik aktiv tannarxidan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirgan holda o'lchanadi.

Biologik aktivlar yetilgan va yetilmagan aktivlarga bo'linishi mumkin. Yetilgan biologik aktivlar hosil olish xususiyatlariga erishgan, ya'ni iste'mol qilinadigan yoki muntazam mahsulot beradigan aktivlardir. Asalarichilikda kuchli, mahsuldor va asal yig'ishga tayyor oila yetilgan biologik aktiv hisoblanadi. Yangi shakllangan, hali yetarli ishchi arilarga ega bo'lmagan ajratma oila yoki yangi ari paketi esa yetilmagan biologik aktiv sifatida ko'rilishi mumkin.

Biologik aktiv holati	Asalarichilikdagi misol	Hisob va boshqaruvdagi ahamiyati
Yetilmagan aktiv	Yangi ajratma oila, yangi ari paketi, hali mahsuldorlikka chiqmagan ona ari bilan oila	Kelgusida iqtisodiy foyda keltiradi, lekin hozirgi mahsuldorligi cheklangan; nazorat va parvarish xarajatlari alohida kuzatiladi
Yetilgan aktiv	Asal yig'ish mavsumida kuchli oila, sifatli ona ari va yetarli ishchi arilarga ega uya	Asal, mum, propolis va boshqa mahsulotlar olish uchun tayyor; haqqoniy qiymatni bozor ma'lumotlari bilan baholash osonroq
Mahsuldorligi pasaygan aktiv	Kasallangan, qishlovdan zaif chiqqan yoki ona arisi eskirgan oila	Qadrsizlanish, davolash xarajatlari yoki almashtirish zarurati yuzaga keladi

O'zbekiston sharoitida tan olish mezonlarini qo'llash uchun asalarichilik xo'jaligi har bir uya yoki kamida har bir asalari oilasi bo'yicha elektron yoki qog'oz pasport yuritishi maqsadga muvofiq.

Unda oila raqami, ona ari yoshi, bahorgi va kuzgi ko'rik natijalari, asal olish hajmi, kasallik holatlari, davolash tadbirlari va ko'chirish manzillari qayd etiladi.

O'lchash

Biologik transformatsiya biologik aktivda sifat va miqdor o'zgarishlariga olib keladi.

O'sish, sifat o'zgarishi, mahsulot hosil qilish va ko'payish jarayonlarining har biri o'lchanishi mumkin. Bu o'zgarishlar iqtisodiy foydani bildiradi, ya'ni biologik aktivlar qiymatidagi o'zgarishlar daromad va xarajat moddalari shakllanishiga ta'sir qiladi.

Haqqoniy qiymat usulining qo'llanishi qishloq xo'jaligi korxonalarining balans hisobotlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu usul investorlar, kreditorlar, soliq va boshqaruv organlari, kooperatsiyalar hamda xo'jalik rahbarlari uchun aktivlar holati haqida aniqroq axborot beradi.

Asalarichilik xo'jaliklarida asalari oilalari soni, kuchi va mahsuldorligi bo'yicha baholash moliyaviy natijalarni realroq ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi subyekti mulki tarkibiga kirishda biologik aktivlarni o'lchash quyidagi usullarda ifodalanishi mumkin.

2-jadval. Biologik aktivlarni dastlabki tan olish va keyingi moliyaviy yillarda o'lchash

Dastlabki ro'yxatga olish	N moliyaviy yil	N+1 moliyaviy yil	N+2 moliyaviy yil
Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish

chegirilgan haqqoniy qiymat	va qadrsizlanish zararlarini chegirish	va qadrsizlanish zararlarini chegirish	va qadrsizlanish zararlarini chegirish
Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun dastlabki tan olish va keyingi yillarda hisobda aks ettirish variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin.

3-jadval. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki tan olish va keyingi moliyaviy yillarda o'lchash

Dastlabki ro'yxatga olish	N moliyaviy yil	N+1 moliyaviy yil	N+2 moliyaviy yil
Tannarxdan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirish	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirish	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirish	Tannarxdan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirish
Tannarxdan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanish zararlarini chegirish	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat	Sotish joyidagi taxminiy xarajatlar chegirilgan haqqoniy qiymat

Mazmunan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'lchash mezoni biologik aktivlar uchun ko'rsatilgan mezonga yaqin. Biroq farq shundaki, IAS 41 biologik aktivlar bo'yicha haqqoniy qiymatni ishonchli baholab bo'lmaganda tannarx mezonidan foydalanishga ruxsat beradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan esa hosil olingan paytda har qanday holatda haqqoniy qiymat qo'llanadi.

Asalarichilikda o'lchash amaliyoti quyidagi tartibda tashkil etilishi mumkin: mavsum boshida har bir asalari oilasi holati inventarizatsiya qilinadi; mavsum davomida olingan asal, mum, propolis va boshqa mahsulotlar miqdori qayd etiladi; hosil olingan paytdagi bozor narxlari aniqlanadi; sotish xarajatlari, masalan, qadoqlash, tashish, laboratoriya tahlili, brokerlik yoki bozor xarajatlari chegiriladi; yakunda zaxiralar va moliyaviy natijalar hisobi shakllantiriladi.

4-jadval. O'zbekiston asalarichilik xo'jaliklari uchun o'lchash va hisobga olish namunasi

Obyekt	O'lchov birligi	Dastlabki baholash	Keyingi hisobga olish
Asalari oilasi	dona / uya	Sotib olish qiymati yoki haqqoniy qiymat; bozordagi oila narxi asosida	Mavsumiy ko'rik, mahsuldorlik va bozor qiymati asosida qayta baholash
Ona ari	dona	Sotib olish qiymati yoki yetishtirish tannarxi	Yoshi, nasl sifati va oilaga ta'siri bo'yicha nazorat
Asal	kg yoki tonna	Hosil olingan paytda sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy	Qadoqlangandan keyin zaxira sifatida IAS 2 mazmunidagi

		qiymat	hisob
Mum	kg	Hosil olingan paytdagi bozor narxi asosida	Ichki qayta ishlash yoki sotish uchun zaxira
Propolis, gul changi, ari suti	kg yoki gramm	Hosil olingan paytdagi haqqoniy qiymat	Saqlash, qayta ishlash va sotish xarajatlari alohida hisobga olinadi
Ari paketi	dona	Yetishtirish xarajatlari yoki bozor qiymati	Sotish yoki xo'jalik ichida yangi oilaga aylantirish bo'yicha hisob

Baholash

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid moliyaviy hisobotlarda biologik aktivlar transformatsiyasi, ularni tan olish, o'lchash va baholashni rivojlantirishga yordam beradi.

IAS 41 ga ko'ra, biologik aktiv biznesga tegishli har qanday tirik o'simlik yoki tirik hayvondir. Biologik aktivlarni hisobda tan olish, o'lchash va baholashning investorlar uchun eng muhim usuli joriy haqqoniy qiymatdan foydalanishdir.³

Biologik transformatsiya biologik aktivdagi tabiiy o'zgarishdir. U tirik hayvonlar yoki o'simliklarning o'sishi, yoshi yoki kasallik tufayli mahsuldorlik kamayishi hamda boshqariladigan ko'paytirish dasturi orqali yangi biologik aktivlar ishlab chiqarilishini qamrab oladi. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aktivlar va majburiyatlar imkon qadar miqdoriy ifodalanadigan iqtisodiy natijalarni aks ettira oladigan tarzda ko'rsatilishi kerak.

Bunday natijalarga inflyatsiya, foiz stavkalari, valyuta kurslari o'zgarishi, davlat aralashuvi xavfi, ob-havo va iqlim kabi omillar ta'sir qiladi. Bu maqsadga turli baholash modellari, jumladan aktivlar va majburiyatlarning haqqoniy qiymati konsepsiyasini qo'llash orqali erishish mumkin.

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ham ayni yondashuv dolzarbdir.

Baholanishi mumkin bo'lgan biologik aktivlar qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, gulchilik, baliqchilik, chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik aktivlarini o'z ichiga oladi.

Asalarichilikda baholash jarayonida faqat uyalarning soni emas, balki oilalarning kuchi, ona arining sifati, kasalliklardan holi ekanligi, mavsumiy joylashuv, yaqin atrofdagi o'simlik bazasi va mahsulot sifati ham hisobga olinishi lozim.

5-jadval. Asalarichilikda haqqoniy qiymatga ta'sir qiluvchi omillar

Omil	Baholashga ta'siri	Amaliy izoh
Asalari oilasining kuchi	Kuchli oila ko'proq asal va qo'shimcha mahsulot beradi	Ramkalar soni, ishchi arilar zichligi va nasl holati bilan baholanadi
Ona ari sifati va yoshi	Mahsuldorlik va oilaning barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi	Yosh va serpusht ona ari oila qiymatini oshiradi
Kasallik va zararkunandalar	Qadrsizlanish xavfini oshiradi	Varroatoz, nozema va boshqa kasalliklar nazorat qilinadi
Hudud va ozuqa bazasi	Asal turi va hosil hajmini belgilaydi	Tog', cho'l, paxta, beda yoki kungaboqar hududlari narxda farq qiladi

³ Muhammad K. A fair value model for bearer biological assets in promoting corporate governance. Journal of Agricultural Studies, 2014.

Bozor talabi	Mahsulot narxini shakllantiradi	Organik, laboratoriya tekshiruvdan o'tgan yoki eksportbop asal yuqoriroq baholanadi
Sotish xarajatlari	Haqqoniy qiymatdan chegiriladi	Qadoqlash, tashish, sertifikat, laboratoriya, brokerlik xarajatlari

Xulosa

Maqolada qishloq xo'jaligi faoliyatining moliyaviy hisobotda aks ettirilishi taqqoslanadi.

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini baholash, ro'yxatga olish va hisobotda ko'rsatish IAS 41 — "Qishloq xo'jaligi" hamda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartining 34-bo'limida bayon etilgan.

Biologik aktivlar dastlabki tan olishda va har bir hisobot sanasida sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda o'lchanadi. IAS 41 dagi haqqoniy qiymat — bu xabardor va bitim tuzishga tayyor tomonlar o'rtasidagi mustaqil bitimda aktiv almashilishi mumkin bo'lgan qiymatdir. U aktivning joriy kutilmalar asosidagi bozor narxini ifodalaydi.

IAS 41 baholash mezonlarining norasmiy ierarxiyasini ham o'z ichiga oladi. Bu ierarxiya IAS 36 — "Aktivlarning qadrsizlanishi" va IAS 39 — "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va o'lchash" standartlaridagi yondashuvlarga o'xshashdir. Biologik aktivlar hisobi qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy holatini real aks ettirish, boshqaruv qarorlarini asoslash va investorlar uchun ishonchli axborot berishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston asalarichilik xo'jaliklari uchun ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, asalari oilalari, ona arilar, ari paketlari va asalarichilik mahsulotlari aniq mezonlar asosida baholanadi. Natijada xo'jalik rahbari har bir pasika yoki har bir oila bo'yicha mahsuldorlikni, xarajatlarni, biologik aktivlar qiymatini va sotishdan kutilayotgan iqtisodiy foydani ko'ra oladi. Bu esa asalarichilikni zamonaviy hisob, nazorat va boshqaruv tizimi asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Herbohn K., Herbohn J. International accounting standard (IAS) 41: What are the implications for reporting forest assets? Small Scale Forest Economics, Management and Policy. 2006. 5:175-189.
2. Deloitte Shared Services India LLP. Harvest is the Detachment of Produce from a Biological Asset or the Cessation of a Biological Asset's Life Processes. Karnataka: Deloitte Shared Services India LLP, 2016.
3. Muhammad K. A fair value model for bearer biological assets in promoting corporate governance: A proposal. Journal of Agricultural Studies. 2014. 2:16-26.
4. Lefter V., Roman A. G. IAS 41 agriculture: Fair value accounting. Theoretical and Applied Economics. 2007. 5:15-22.
5. International Accounting Standards Board. International Financial Reporting Standards. London: IFRS Foundation Publications Department, 2012.
6. IASB. International Financial Reporting Standard for Small and Medium-sized Entities. 2009.

7. Abdigapparovich, I. H. ASALARICHILIKDA XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARNI TAQSIMLASHDA YANGI YONDASHUVLAR. "OZUQA EKINLARNI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK TOZA OZUQALARNI YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI" XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO'PLAMI, 277.
8. Abdigapparovich, I. H. ASALARICHILIK XO 'JALIKLARIDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. "OZUQA EKINLARNI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK TOZA OZUQALARNI YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI" XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO'PLAMI, 280.
9. Ishturdiyev, H. Asalarichilik Xo 'jaliklarida Biznes Jarayonlari Hisobining Normativ-huquqiy Asoslari. *Green Economy and Development*, 3(2), 666020.
10. Ishturdiyev, H., Rasulberdiyev, G. A., Xusanov, S., & Rustamova, D. Qishloq Xo'jalik Korxonalarida Ishlab Chiqarish Xarajatlari Hisobini Takomillashtirish Jarayonlari. *Green Economy and Development*, 3(2), 666029.
11. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).